

**TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI**

*Gurlan tumanidagi 9-maktabning texnologiya fani o'qituvchisi*

*Yuldashev Sanjarbek Sodiqboyevich*

**Annottatsiya:** Ushbu tezisdagi maktabda texnologiya darslarini tashkil etishda tayaniladigan tamoyillar haqida ma'lumotlar berilgan. O'quvchilarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish borasida so'z yuritilgan.

**Аннотация:** В данной дипломной работе представлена информация о принципах, используемых при организации уроков технологии в школе. Обсуждаются методы умственного и физического развития учащегося, сотрудничество с ним, направление его на учебу и обучение, правильная организация личной деятельности учащегося.

**Annotation:** This thesis provides information about the principles used in the organization of technology lessons at school. Methods of mental and physical development of students, cooperation with him, directing him to study and learning, proper organization of student's personal activities are discussed.

**Kalit so'zlar:** onglilik va faollik, ko'rsatmalilik, o'z-o'zini baholash

**Ключевые слова:** осознанность и активность, направленность, самооценка

**Keywords:** awareness and activity, directiveness, self-assessment

Ta'lim va tarbiya har doim birgalikda tilga olinadigan tushunchalardir. Aqliy va jismoniy mehnat jarayonida xarakter xususiyatlari va hatti harakat ko'nikma va

odatlarni tarbiyalaydi. O'tilayotgan mavzu mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash ham uni ta'lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda ahamiyatga ega.

Texnologiya darslarini ko'rsatmalilik tamoyili asosida tashkil etish - o'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o'quvchilarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkun. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. O'qitish jarayonida o'quvchilarda malaka va ko'nikmalar hosil qilish uchun mehnat usuli va operatsiyalarini ko'rsatish keng qo'llaniladi. Ko'rsatmalilik o'quvchilarni qiziqishini orttiradi va qiziqtiradi, o'tilayotgan darsni yaxshi esda saqlab qolishga yordamlashadi (plakat, diafilm).

Mustahkam va puxta o'zlashtirish tamoyili asosida tashkil etish - mustahkam va puxta o'zlashtirish tamoyilda barcha ilg'or o'qituvchilar va pedagog olimlarning ko'p yillik izlanishlari o'z ifodasini topgan. Unda nazariy bilimlar bilan empirik bilimlar birlashib mustahkamlangan. Bilimlarni mustahkam egallash jarayoni juda murakkab bo'lib, keyingi yillardagi tadqiqotlar bu jarayonga o'zgarishlar kiritdi. Bilimni mustahkam egallash jarayonini shu kundagi tushunilishi, bu jarayonga quyidagi yangi qoidalarni kiritishni taqozo etadi.

1. O'quvchilar tushunib yetadigan yoki noto'g'ri tushunib qolgan narsalarni eslab qolmasliklariga e'tibor berish lozim. Bola faqat yaxshi tushunib yetib, uning to'g'riligiga ishonch hosil qilgan narsasini xotirasida saqlash.
2. Bola xotirasini kam e'tiborli axborotlarni eslab qolishdan xoli qilish maqsadida, ularni turli lug'at va ensiklopediyalardan foydalanishga o'rgatish.
3. Eslab qolinadigan narsalarni nihoyatda qisqa qilib, yod olishga oson bo'lishi uchun, ravon, iloji bo'lsa she'r vazniga solib turib esda saqlashga bolalarni o'rgatish.

4. Esdan chiqarish bilimni egallab olgandan keyin tez kechishini hisobga olgan holda, ularni psixologiya fanining esda saqlash qoidasi asosida xotirada saqlashga yoshlarni o'rgatish.

5. Takrorlash mashqlarini bola yangi bilimni egallagan paytdan boshlash. Chunki bu narsalar keyin esdan chiqib ketishi aniq.

6. Bola diqqatini susaytiruvchi ichki va tashqi omillar faoliyatiga yo'l qo'ymaslik, dangasalik kasali bilan tinmay kurash olib borish, bilim olish sur'atini pasaytirmaslik.

7. Bilimni egallash sur'ati pasaya boshlashi bilan uning sababini aniqlash va bartaraf etish. Odatda, bilim olish sur'atining pasayishi charchagandan keyin paydo bo'ladi.

8. O'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda darsni qaytarish eslab qolishning muhim omili ekanini unutmaslik va o'zini-o'zi tarbiyalashga katta e'tibor qaratish.

9. Mashqlar o'tkazishdan oldin, ularning bajarilish tartibi va natijasi to'g'risida ma'lumot berish.

10. Mashq davrida o'quvchilarni charchab qolishdan saqlash.

11. Hozirgi zamon nazorat usullaridan to'g'ri foydalanish. 20. O'quvchilarni o'z mehnatini nazorat qilish va baholashga o'rgatish.

Texnologiya fanini o'qitishda modellardan keng foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Modellar tabiiy ob'yektlarning sun'iy ko'rinishi bo'lib, ularning muhim sifatlari, aloqalari va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar hisoblanadi. Haqiqiy ob'yekt (mikro va makro ob'yektlar) xususiyatlarini ko'rsatishda shartlilik (ramziylik)ka amal qilinadi, o'lchamni kattalashtirish kattalashtirish yoki kengaytirish kengaytirish orqali ob'yekt qurilmasi qurilmasi sxema tarzida aks ettiriladi. Bunda o'quvchilarning o'rganilayotgan bilimlarni esda saqlashi, yaxshi tushunib olishiga erishiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov O.A.Qo'ysinov Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, Kasb tanlashga yo'llash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov va.boshqalar. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: 2009